



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI
BOSHQARISH AGENTLIGI DIREKTORINING
B U Y R U G' I**

2025-yil 15-avgust

339-son

Toshkent sh.

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-iyuldagi
446-son qarori ijrosini tashkil etish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2025–2027-yillarda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ichki nazorat tizimini yanada takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2025-yil 16-iyuldagi 446-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2025–2027-yillarda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ichki nazorat tizimini yanada takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2025-yil 16-iyuldagi 446-son qarori (keyingi o'rinlarda – Qaror) **rahbarlik, nazorat va amaliy ijro uchun qabul qilinsin.**

2. Qarorga muvofiq quyidagilar:

a) 2025–2027-yillarda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ichki nazorat tizimini yanada takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari, vazifalari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi rivojlanish bosqichlarini belgilaydigan konsepsiya 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi va unda quyidagilar nazarda tutilganligi:

davlat sektorida ichki nazorat tizimini rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajriba va mamlakatimizdagi joriy holat;

nazorat muhitining yaxlit tizimini shakllantirish va xavflarni boshqarishning samarali tizimini joriy etish, natijadorligini oshirish va axborot – kommunikatsiya tizimini takomillashtirish;

ichki nazorat tizimining doimiy monitoringini amalga oshirish hamda hisobdorlikni yanada mustahkamlash, tizimini tashkil etishni standartlashtirish maqsadida qonunchilik asoslarini takomillashtirish;

xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish;

b) respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ichki nazorat tizimini yanada rivojlantirish va standartlashtirish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar, harakatlarning mantiqiy ketma-ketligi, muddatlari va amalga oshirish mexanizmlarini o'z ichiga olgan 2025–2027-yillarda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ichki nazorat tizimini takomillashtirish konsepsiyasini amalga oshirish yuzasidan “Yo'l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

d) O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi, shu jumladan “Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmatlari shtat birliklari sonini belgilashning mezonlari va eng kam me'yorlari” tasdiqlanganligi;

e) Xalqaro Ichki auditorlar instituti tomonidan ishlab chiqilgan “**Uch bo'g'inli himoya**” modelidan foydalanilgan holda ichki nazoratni funksional ravishda xalqaro standartlarga muvofiq quyidagicha bo'g'inlarda tashkil etish:

birinchi bo'g'in – asosiy faoliyat bilan bog'liq vazifalarni bajarishda yuzaga kelgan xavflarni minimallashtirish (bartaraf etish) orqali davlat organi faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq funksiyalarni bajaruvchi **tarkibiy bo'linmalar**;

ikkinchi bo'g'in – asosiy faoliyatga yordamchi sifatidagi vazifalarni jumladan, xavflarni boshqarish, inspeksiya va muvofiqlikni ta'minlashga qaratilgan **boshqaruv va nazoratni qo'llab-quvvatlovchi maxsus funksiyalarni** amalga oshiruvchi **Ichki nazorat koordinatori**;

uchinchi bo'g'in – nazorat va boshqaruv tizimlarining samaradorligini mustaqil baholashni ta'minlaydigan **Ichki audit belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin**.

3. Davlat aktivlari agentligida ichki nazorat tizimini muvofiqlashtirish, tegishli ma'lumotlarni jamlash va tahlil qilish hamda manfaatdor tomonlarga ichki nazorat tizimi bo'yicha hisobot taqdim etishni amalga oshiruvchi **Ichki nazorat koordinatori vazifasi** Strategik rejalashtirish, tarkibiy va hududiy bo'linmalar bilan ishlash bo'yicha yig'ma axborot-tahlil boshqarmasiga (keyingi o'rinlarda – **Ichki nazorat koordinatori**) yuklatilsin.

4. Ichki nazorat koordinatori:

Davlat aktivlari agentligida ichki nazorat tizimi samaradorligini tasdiqlangan tartib asosida **doimiy ravishda** monitoring qilib borilishini;

monitoring doirasida **har chorakda** tarkibiy bo'linmalarda ichki nazorat tizimini tashkil etishga oid ma'lumotlar jamlanishini, o'rganilishini, ma'lumotlarni tahlil qilish orqali ichki nazorat tizimi samaradorligini aniqlanishini va natijasi bo'yicha ichki nazorat tizimining faoliyati to'g'risida **hisobot tayyorlanishini**;

tarkibiy bo'linmalar tomonidan aniqlangan xavflar reyestrini, xavflarni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar rejasini va uning ijrosi yuzasidan ma'lumotlarni umumlashtirgan holda **har chorak yakuni bilan keyingi oyning 15-sanasiga qadar** Ichki audit xizmati bo'limiga taqdim etilishini;

yil yakunlari bo'yicha Ichki nazorat tizimini samarali tashkil etilishi to'g'risidagi hisobotni Davlat aktivlari agentligi direktori bilan kelishgan holda **keyingi yilning 25-yanvariga qadar** Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etilishini ta'minlasin.

5. Ichki audit xizmati bo'limi (**Alibekov**) **Ichki nazorat koordinatori** tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida, Davlat aktivlari agentligi tarkibiy bo'linmalari tomonidan ichki nazorat tizimining samarali yo'lga qo'yilganligini **2026-yildan boshlab har chorak yakuni bilan** keyingi oyning 20-sanasiga qadar baholashdan o'tkazsin hamda baholash natijalari bo'yicha Davlat aktivlari agentligi rahbariyatiga ma'lumot taqdim etib borsin.

6. Davlat aktivlari agentligi markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari va hududiy boshqarmalari rahbarlari:

muntazam ravishda funksiya va vazifalarni amalga oshirishdagi faoliyatiga salbiy ta'sir etuvchi **xavflar aniqlanishini**;

xavflarni yuzaga kelish ehtimoli va ta'sirini baholagan holda **xavflar reyestri shakllantirilishini**;

baholash natijalariga asosan, "yuqori" va "o'rta" xavflarni bartaraf etish (kamaytirish va oldini olish) yuzasidan tegishli **chora-tadbirlar rejasi loyihasi ishlab chiqilishini**;

Xavflarni boshqarish qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan xavflarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasiga asosan topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash hamda amalga oshirilgan ishlar **monitoringi olib borilishini**;

Ichki nazorat koordinatoriga **har chorak yakuni bilan keyingi oyning 10-sanasiga qadar** xavflar reyestrini, xavflarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi loyihasini, hamda tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida ma'lumotlarni va ular bo'yicha tasdiqlovchi hujjatlarni **taqdim qilinishini ta'minlasin**.

7. Ichki audit xizmati bo'limi (**Alibekov**):

Davlat aktivlari agentligi tarkibiy bo'linmalari va Ichki nazorat koordinatori tomonidan nazorat jarayonlarini amalga oshirish tartibini **2025-yil yakuniga qadar** ishlab chiqib, tasdiqlash uchun Davlat aktivlari agentligi direktoriga kiritilishini;

Ichki nazorat koordinatori, Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (**Fazilov**) bilan birgalikda Xususiyashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish markazi (**Butikov**) hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi mas'ul mutaxassislarini jalb qilgan holda Qarorning mazmun-mohiyati va uning Davlat aktivlari agentligi va uning tizimida qo'llanilishi yuzasidan Davlat aktivlari agentligi markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va tizim tashkilotlari xodimlari ishtirokida o'quv seminari tashkil qilinishini ta'minlasin.

8. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (**Fazilov**) Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiyashtirish jamg'armasini yuritish boshqarmasi (**G'afurov**) bilan birgalikda **bir hafta muddatda**, Ichki audit xizmati bo'limi shtat birliklari sonini belgilashning mezonlari va eng kam me'yorlari talablari asosida qayta ko'rib chiqishni hamda natijasi bo'yicha Davlat aktivlari agentligi direktoriga tegishli takliflar kiritilishini ta'minlasin.

9. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (**Sulaymanov**) Ichki audit xizmati bo'limi (**Alibekov**) va Strategik rejalashtirish, tarkibiy va hududiy bo'linmalar bilan ishlash bo'yicha yig'ma axborot-tahlil boshqarmasi (**Sayfulloyev**) bilan birgalikda axborot texnologiyalardan keng foydalangan holda samarali axborot va ma'lumotlar almashishni ta'minlash, xavflarni boshqarish tizimini nazorat qilish hamda xato-kamchiliklar va xavflardan ogohlantirish mexanizmlarni yo'lga qo'yish bo'yicha taklif ishlab chiqsin hamda kelishish uchun Davlat aktivlari agentligi direktoriga kiritilishini ta'minlasin.

10. Qaror bilan tasdiqlangan 2025–2027-yillarda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ichki nazorat tizimini takomillashtirish konsepsiyasini amalga oshirish yuzasidan “Yo'l xaritasi”ning Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga tegishli topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlari rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

11. Mas'ul tarkibiy bo'linmalar, hududiy boshqarmalar va idoraviy mansub tuzilmalar rahbarlariga mazkur buyruq va unga ilova chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifa va topshiriqlarni o'z vaqtida sifatli bajarilishi bo'yicha shaxsiy javobgarlik yuklansin.

12. Davlat aktivlari agentligi tizim tashkilotlari Qaror va mazkur buyruq talablaridan kelib chiqib, tegishli ishlarni samarali tashkil etilishini ta'minlasin.

13. Ijro intizomi nazorati va murojaatlar bilan ishlash bo'limi (**Sultanova**) mazkur buyruq nusxalarini, Davlat aktivlari agentligi markaziy apparatining tarkibiy bo'linmalari, hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tuzilmalariga yetkazsin.

14. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish direktorning birinchi o'rinbosari N. Xusanov, direktor o'rinbosarlari A.Miraliyev va M.Kadirov zimmasiga yuklansin.

Direktor



A.Ortikov